

## QANDLI DIABET 2-TURI VA ORTIQCHA VAZNGA EGA BEMORLARDA KARDIOVASKULYAR BUZILISHLAR

**Anvarjonova L.A**

*1-kurs Endokrinlogiya yo'nalishi magistranti.*

**Karimova M.M.**

*t.f.n. Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti*

**Annotatsiya;** Qandli diabetning 2-turi (QD-2) ortiqcha vazn bilan birga kelgan hollarda, kardiovaskulyar tizimda jiddiy buzilishlar rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi. Ushbu tadqiqot QD-2 va ortiqcha vaznli bemorlarda kardiovaskulyar buzilishlarning asosiy sabablari va oqibatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari bu bemorlar uchun profilaktik va terapevtik yondashuvlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Ilmiy ish maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi QD-2 va ortiqcha vaznli bemorlarda kardiovaskulyar buzilishlarning patogenezi, ularning klinik ko'rinishlari va ushbu holatlarni oldini olish usullarini o'rganishdir. Bundan tashqari, kardiovaskulyar kasalliklarning erta tashxislash va bemorlarga individual tarzda yondashish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish ham maqsad qilingan.

Tadqiqot materiali va tekshirish usullari. Tadqiqot uchun QD-2 tashxisi qo'yilgan va tana massasi indeksi (TMI) 30 dan yuqori bo'lgan 30 nafar bemor tanlab olindi. Ular orasida 14 nafar erkak va 16 nafar ayol bemor bor edi. Tekshiruv davomida quyidagi usullar qo'llaniladi:

Kliniko-anamnestik ma'lumotlarni to'plash;

Elektrokardiografiya (EKG) va exokardiografiya (ExoKG) orqali yurak faoliyatini baholash;

Qon bosimini o'lchash va lipid profilini aniqlash;

Qand miqdorini glyukozali yuklama testi orqali nazorat qilish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ortiqcha vazn va QD2 bo'lgan bemorlarda quyidagi o'zgarishlar aniqlanadi:

- Yurak mushaklarining gipertrofiyasi va diastolik disfunktsiya.

- Ateroskleroz va arteriyalarning torayishi.

- Gipertoniya va dislipidemiya bilan bog'liq yurak kasalliklari xavfi oshish darajasi.

- SGLT2-ingibitorlari va GLP-1 agonistlarining yurak-qon tomir asoratlarini kamaytirishdagi ijobiy ta'siri o'rganib chiqish.

Xulosa. QD2 va ortiqcha vazn kardiovaskulyar kasalliklarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi. Bemorlarning hayot tarzini o'zgartirish, qon glyukoza va lipid profilini nazorat qilish kardiovaskulyar asoratlarning oldini olishda muhim rol o'ynashi. Klinik tekshiruvlar va dori vositalarining samaradorligini baholash

yurak-qon tomir kasalliklarini kamaytirishda dolzarb yoʻnalishlardan ekanligiga eʼtibor qaratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Standards of Medical Care in Diabetes—2022
2. Management of Hyperglycemia in Type 2 Diabetes, 2022. A Consensus Report by the ADA and the European Association for the Study of Diabetes (EASD):
3. Diabetes Technology: Standards of Medical Care in Diabetes—2022:
4. 2021 ESC Guidelines on Cardiovascular Disease Prevention in Clinical Practice
4. 2022 AHA/ACC/HFSA Guideline for the Management of Heart Failure:
5. Saydaxmedov, Z. I., & Mahmudov, U. I. (2023). CLINICAL AND FUNCTIONAL STATUS OF THE CARDIOVASCULAR SYSTEM IN PATIENTS WITH CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE WITH COVID-19. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(16), 44-47.
6. Qurbonbek oʻgʻli, D. S. (2023). TREATMENT OF THE PATIENT WITH COPD AND CARDIOVASCULAR DISORDERS. Scientific Impulse, 1(8), 553-564.
7. Qurbonbek oʻgʻli, D. S. (2023). THE RELATIONSHIP BETWEEN CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE (COPD) AND CARDIOVASCULAR DISEASE (CVD). PEDAGOG, 6(12), 85-96.
8. Ilhomjon ogli, M. U., Ibrohimjon ogli, S. Z., & Qurbonbek ogli, D. S. (2024). CLINICS AND RESULTS OF TREATMENT OF PATIENTS WITH CORONAVIRUS INFECTION COMPLICATED BY INTERSTITIAL PNEUMONIA IN THE FERGHANA REGION. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(30), 21-26.
9. Аvezов, Д. К., Турсунова, Л. Д., Назарова, Н. О., & Хайитов, Х. А. (2021). КЛИНИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ СТАТУС СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНЬЮ ЛЕГКИХ С COVID-19. Интернаука, (20-2), 15-16.
10. Saydaxmedov, Z. I., & Mahmudov, U. I. (2024). DIABETES MELLITUS AND COVID-19; A BIDIRECTIONAL INTERPLAY. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(25), 130-136.
11. Saydaxmedov, Z. I., & Mahmudov, U. I. (2023). Dynamics Of Glycemic Variability In Patients With Type 2 Diabetes Mellitus During Deprescribing Therapy Depending On The Presence Of Severe Comorbid Pathology. Innovative Developments And Research In Education, 2(24), 243-249.